

TURISTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH XUSUSIYATLARI*Xasanova Nargiza**Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti**"Turizm" kafedrasi katta o'qituvchisi,**Inomjonov Feruzbek**Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti**Turizm yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya Turizm rivojlangan mamlakatlar qatorida ekanmiz, turistlar xavfsizligini ta'minlash davlatni xavfsizligini isbotlab beradi. Turistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Tashqi ishlar vazirligi va hamda Turizm qo'mitasi mas'ul hisoblanadi. Turistlarni himoya qilish uchun "Tourism police"lar tashkil etilgan. Turistlar xavfsizligi bo'yicha yurtimizda yaratilgan sharoitlar haqida maqolamda ko'ratilgan

Kalit so'zlar: Ekspert. industriya. Tourism police. sog'ligni saqlash. Prognoz Butun Jabon Turistik Tashkiloti

Abstract Since we are among the developed countries in tourism, the safety of tourists ensuring the safety of the state. The Ministry of Foreign Affairs and the Tourism Committee are responsible for ensuring the safety of tourists. "Tourism police" have been established to protect tourists. The conditions created in our country for the safety of tourists are shown in my article.

Keywords: Expert. industry. Tourism police. health care. Prognosis All Japan Tourism Organization

KIRISH

O'zbekiston turistik industriyasi har qachongidan ham diqqat bilan jahondagi keyingi siyosiy voqyealarni kuzatib borayapti. Negaki, AQShning Iroqdagi harbiy harakatlariga nisbatan qabul qiladigan qarori Markaziy Osiyoda turizmning holati va rivojlanishini belgilab beradi. 2001 yil 11 sentyabr voqyealari sadosi bu hududda turistik kelishlarga aks tasir etdi, oz navbatida turistik iqtisodiyot sektori moliyaviy natijalari boyicha sezilarli zarba berdi. Malumki, Ozbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlari iqtisodiyoti kopincha tashrif buyuradigan sayohatchilar soniga

bog'liq. Turli baholar boyicha mehmonlarga bevosita yoki bilvosita xizmat korsatishda mahalliy iqtisodiyotda band kishilarning 10 dan 25 %gachasi ishtirok etadi. Ular orasida nafaqat turfirmalar, restoranlar va transport xodimlari, balki hunarmandlar, fermerlar, xususiy tadbirkorlar (sartaroshlar, kongilochar muassasalar egalari, kir yuvuvchilar), ijod shaxslari (rassomlar), shuningdek madaniyat muassasalari va bosh vaqtni otkazish - teatrlar, muzeylar xodimlari ham bor.

WTO - BTT (Butunjahon Turistik Tashkiloti) bahosicha, 2001 yilda xalqaro kelishlar hajmi moljaldagi darajadan 0,6 %ga pasaygan, qaysikim, bu 1982 yildan keyingi birinchi yil vaziyatiga mos keladi. Butunjahon turistik industriyasi sovetining (World Travel & Tourism Council - WTTC) prognoz baholarini keltiramiz. Unga muvofiq 2008 yilda sayohat va turizm jahon industriyasi \$ 4,5 trln. Dollardan ortiq umumiy summada xizmatlar va tovarlar ishlab chiqaradi. Umuman 2013 yilga borib, qanday bolishidan qat'iy nazar jahon turistik industriyasida 9 trln. dollarlik turistik xizmat va tovarlar ishlab chiqarilishi kerak. Tog'ri, Yaqin Sharqdagi urush kuchayishi WTTC prognozlari boyicha osishning bazaviy korsatkichlarini 2,7 %ga pasaytirishi mumkin.[1]

Shunga qaramasdan, kopchilik ekspertlar prognoz baholariga ishonchsizlik bilan qarashmoqda. Harbiy harakatlar, terrorizm - bu omillarni prognozlarga qoshilishi qiyin, demak hududiy va jahon turistik bozoridagi vaziyat haqida biror bir tasavvurga ega bolish mushkul. Ayni paytda WTTC Iroqqa urush boshlangan taqdirda turizm yoqotishlarini ham baholadi. Prognozlarga kora, murakkab va chozilib ketgan urush turistik biznesni \$ 30 mlrd. ga yaqin mablagdan mahrum qiladi. Rossiyada tarmoq osishi suratlari ikki barovar kamayadi. Markaziy Osiyoda korsatkichlar qanday bolishini hisoblab chiqish qiyin, lekin bir narsa aniq, u yaxshi bolmaydi. Shuningdek, kelgusida turistik kelishlarni kamayishini ham kutish mumkin. Majorani tinch yol Bilan hal etish ham qisqa urush sovet tasarrufida bolgan kengliklarda biznesni avvalgi suratlarda rivojlantirish imkonini beradi va yil yakuni boyicha bozor hajmi \$ 46,6 mlrd. ga yetishi mumkin.

Ayrim ozbek ekspertlari nuqtai nazariga kora, baho malumotlari MDH uchun juda umidbaxsh. Negaki, sobiq SSSR respublikalarida otgan yuz yillikning 90-yillarida hajm jahon turistik korsatkichlaridan 2-3 %dan oshmagan edi, bu yiliga \$ 10 mlrd. ga yaqin (ulardan \$ 7 mlrd. - faqat Rossiya yonalishida). WTTC oz hisoblarida mahalliy turoperatorlar malumotlaridan foydalanmaydi, balkim BMT, Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi statistikasiga tayanadi.[2]

Natijada, ekspertlar Inna Kolomenskaya va Aleksey Tixonov yozganlaridek mustaqil ravishda bu sektorning turli baholarini olish mumkin.

Bu yondoshuvning qimmati shundaki, turistik bozor rivojlanishi dinamikasini ozaro bogliq turistik nuqtai nazardan iqtisodiyot istiqbollari bilan kengroq tarzda taqqoslash, baholashga uriniladi.

Gap shundaki, WTTC oz saflariga bevosita yoki bilvosita jahon turistik biznesi bilan boglangan barcha kompaniyalarning vakillarini birlashtiradi va ananaviy ravishda nisbatan nufuzli tarmoq takshiloti sifatida qaraladi.

WTTC ekspertlari tomonidan turizm sohasida istemolni baholanishi juda kop tarkiblarni - chiqish va kirish hajmidan tortib, davlatning muzeylarni saqlashga sarflanagan harajatlari, suvenirlar sotishdan tushgan tushumgacha oz ichiga oladi. Rossiya bu tashkilot tadqiqot kartasida keyingi yillardagina paydo boldi. Shuning uchun bolsa kerak, uning potensialini baholashda ekspertlar ortasida turli bahslar kelib chiqayapti. Rossiyalik analitiklarning taxminlaricha, sobiq SSSR mamlakati tur bozorida hatto tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati qoshilganida ham 46 mlrd. dollar olish qiyin.

Hech shubha yokki, samarali faoliyat korsatishi va dinamik rivojlanishi uchun turizm xavfsizlikka zarurat sezadi. Bu sayohatchilar, milliy tatilchilar uchun ham, xalqaro turistlar, ularning shaxsiy mulki uchun ham, turistik diqqatga sazovar joylar, obyektlarni himoya qilish uchun ham juda zarur. Buni qanday taminlasa boladi?

Butunjahon turistik tashkiloti ekspertlari quyidagi yollarni taklif qiladi:

- turistik kelishlar va sayohatchilar uchun xavfsizlik meyorlarini ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish;

- jamoatchilikni xabardorligi va targibot;
- turistlar xavfsizligi, xususan, favqulodda vaziyatlar bilan bogliq muammolarni hal etish uchun institutlar doirasi yaratish;
- jahon miqyosi va hududlararo, subregional, hududiy negizda ikki tomonlama xalqaro hamkorlik.

Shu bilan birga turistlar xavfsizligi va ularning qulayliklari, shuningdek yuksak darajada xizmat korsatishni taminlashga turistik manzilgohlarda boshqa jamoatchilik va milliy manfatlardan ayri qalishi mumkin emas. Xususan, qabul qiluvchi mamlakatda atrof-muhit bilan birgalikda xavfsizlik taminlanishi zarur. Turgan gap, turizm sohasi va turistlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan xavfsizlik meyorlari ishlab chiqilayotganda hayotga tatbiq qilinayotganda tashrif buyurayotganlarning ham, qabul qilayotganlarning ham ishlari ozaro uygunlashgan bolishi kerak. Gap shundaki, turizm mamlakatga fohishabozlik, giyohvandlik, trafik qul odamlar, kontrabanda, madaniy ziddiyatlar va boshqa ijtimoiy salbiy hodisalarni keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan, sayohat qilishni orzu qilib kelgan turist mamlakatda jinoiy harakatga duch bolsa, tibbiy yordam olish imkoniga ega bolmasa, davlat organlari tomonidan himoya qilinmasa ogir ahvolga tushib qolishi mumkin.

Ekspertlarning takidlashlaricha, turizm sohasida turistlarni himoya qilish va xavfsizligini taminlash butun mamlakatda, turistik manzilgohlarda juda kop tartib-qoidalar bilan mustahkamlangan. Ularni nafaqat turistik mamuriyatlar, balki boshqa bir qator turli iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ishlovchi mamuriy organlar ham sozsiz bajarishlari kerak.

Xususan:

sogliqni saqlash;

jamoat tartibini saqlash (polisiya, bojxona, chegara xizmati);

moliyachilar (soliq xizmati, bank);

savdo va maishiy xizmat;

transport;

energetika, kommunikasiya;

atrof-muhit muhofazasi;

bandlik va hududning rivojlanganligi.

Bu jarayonlarda xususiy sektorning ishtiroki ham juda muhim hisoblanadi, negaki, jahonda tashkil etilayotgan barcha safarlarning kamida 7/10 uning xissasiga to'g'ri keladi, tabiiyki, alohida ehtiyotkorlik choralari bu miqyosda yuksak darajada bajarilishi kerak. Turistik firmalar ozlari uyushtiradigan safarlarda sayohatchilarning xavfsizligi bo'yicha talablarni ogishmay bajarishlari shart. Shu munosabat bilan Ozbekiston Respublikasining Turizm to'g'risidagi qonuni 10-moddasiga amal qilish kerak. Unda turistik xizmat albatta sertifikatlangan bolishi shart.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Turistik faoliyat subyektining turistik xizmatlarni sertifikatlashdan bosh tortishi, sertifikatlashning salbiy oqibatlari harakatni toxtalishiga, yoki turistik faoliyatni amalga oshirishdan mahrum etilishiga olib keladi deb yozib qoyilgan. Yani har qanday tur-safar xavfsizlikning hamma shartlari bo'yicha tekshirilishi lozim. Aks holda u turistik bozorga qoyilmaydi. Ayrim malumotlarga kora, turistlarda paydo boladigan har xil xarakterdagi muammolar, kop hollarda ular oldindan sayohat shartlaridan xabardor qilinmaganidan kelib chiqadi: mamlakat xususiyatlari, ovqatlanish, joylashish, mahalliy aholining chet elliklarga munosabati, vaholanki, turist sayohat, shaxsiy xavfsizligi, oz huquqini himoyalash, narsalarini saqlanishi haqida toliq va ishonchli malumot olishga haqli (14-modda). Bundan tashqari, 17-moddaga kora, turistik firma Turni tashkil etilishi, ularni huquq va burchlari haqida turistlarga toliq malumot berishga majbur. Shunga qaramasdan, amaldagi qonunlar va qarorlarni qollanilmasligi, shuningdek ularning ayrim qismlarinigina qollanishi turizmda xavfsizlik masalalariga jiddiy yondoshuv talab qiladigan muammolarni keltirib chiqaradi. Turizm bilan shugullanuvchilar tomonidan global va sistematik asosda xavfsizlik choralarni korish unutiladi. Ayrim tadqiqotlarga kora, xorijiy tashrif buyuruvchilar xavfsizligi bilan bogliq muammolar 10 dan 4 holatda xavfsizlikka javobgar organlarning oz vazifalarini bajarmaganligidan kelib chiqqan. Xususan, yuqorida keltirilgan qonunning 15-moddasiga muvofiq turist kelayotgan mamlakat

bojxona va chegara qoidalariga rioya qilishga majbur, agar u buni buzsa, shaxsiy xavfsizligini shubha ostida qoldiradi. Boshqa tomondan, 18-moddaga muvofiq Ozbekiston Respublikasi hududida turistlar xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi Turizm bo'yicha vakolatli davlat organi manfaatdor vazirliklar va muassasalar bilan hamkorlikda turistlarni himoya qilish va xavfsizligini taminlashga qaratilgan dasturni ishlab chiqadi va bajarilishiga erishishi lozim. Davlat hokimiyati organlari joylarda turizm sohasida hududiy dasturni ishlab chiqadilar va bajarilishini tashkil qiladilar, barcha turistik yonalishlar bo'yicha turistlar xavfsizligini taminlanishi davlat bu muammoga etibor bilan qarayotganligidan guvohlik beradi.[3]

O'zbekistonda Vazirlar Mahkamasi qoshidagi turizmni rivojlantirish bo'yicha Muassasalararo kengash xuddi shunday tashkilot hisoblanadi. Uning tarkibiga Ozbekturizm milliy kompaniyasi (milliy turistik mamuriyat huquqi bilan), Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Moliya vazirligi, Davlati bojxona qomitasi, Davlat soliq qomitasi, Sogliqni saqlash vazirligi va boshqalar keltirilgan.

Turizm xavfsizlik choralarini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro tajribalar Butunjahon turistik tashkiloti tomonidan tadqiq etiladi va umumlashtiriladi. Sayohat xavfsizligi deklarasiyasi Turizm xartiyasi va Turist kodeksida (BTT Bosh assambleyasi VI sessiyasi 1985 y.) oz ifodasini topgan. BTT (VTO) Ijroiya Soveti qoshida 1994 yilda turistik xizmat korsatish sifati bo'yicha Qomita tuzildi. U sayohat xavfsizligi masalalari uchun javob beradi. Osha yili BTT jahonning 73 mamlakatida Turistik obyektlar, turistlar va sayohatchilarni himoya qilish va xavfsizligi mavzusida kuzatuvlar otkazdi. BTT tashabbusi bilan 1995 yil yozida Esterundeda (Shvesiya) sayohat chogida tавvakalchilikni kamaytirish va turizm xavfsizligi bo'yicha I Xalqaro konferensiya otkazildi. Kuzatuv xulosalari shuni korsatdiki, 71 % mamlakatlarda turistlar tashrif buyuradigan diqqatga sazovor joylar va obyektlar maxsus turistik polisiya va xavfsizlik xizmati xodimlari tomonidan qoriqlanadi. Yarmidan kop mamlakatda bu davlat yoki munisial polisiya xizmati qismi hisoblanadi.

Turist xavfsizligi bevosita davlat siyosatiga, firmalar - turoperatorlar, turagentlar koradigan chora-tadbirlarga, shuningdek turistning oz harakatiga bogliq. Xususan,

Ozbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq turist oz shaxsiy xavfsizligi, oz buyumlari saqlanishini taminlash, tosiqsiz kechiktirib bolmaydigan tibbiy yordam olish huquqiga ega. Shuningdek, kelayotgan mamlakatiga kirish tartibi va ozini tutish xulq-atvor xususiyatlari, mahalliy aholi turli urf-odatlarini, sanitariya- epidemiologik holat haqida ishonchli malumotlar olishga haqli. Tabiiyki, sayohat chogida turist kelgan mamlakati qonunlariga rioya qilish bilan birga, uning odatlari, ananalari, diniy etiqodi va ijtimoiy qurilishini hurmat qilishi, albatta shaxsiy xavfsizligi qoidalariga rioya etishi kerak. Statistika boyicha islom davlatlarida turistlar va aholi ortasida kelib chiqayotgan ixtiloflarning 31 % tashrif buyurganlarning mamlakatlar milliy urf-odatlarini buzishi oqibatida roy berayapti.[4]

Qoshimcha qilish kerakki, turist xafsizligiga tahdid haqida axborot u kelgan mamlakat milliy turistik mamuriyati, turoperatorlar va turagentlar tomonidan yetkazilishi kerak. Bundan tashqari, xalqaro tajriba korsatmoqdaki, bir qator hukumatlar jahonning u yoki bu mamlakatlariga, hududlariga boradigan oz fuqarolari uchun tegishli tavsiyalar nashr qilishmoqda, shu jumladan, ularning davlatlariga tashrif buyurayotgan xorijliklar uchun ham.

Sayohat chogida turizm xavfsizligi, tavakkalchilikni kamaytirish muammolar keng doirasiga daxldordir. Mahalliy aholi va tashrif buyuruvchilarni himoya qilish maqsadida maxsus polisiya xizmati tashkil etish, turistik muassasalar xavfsizligini, ularda lisenziya va sertifikatlar bor-yoqligini tekshirish, tez yordam aloqa liniyasi ishini tashkil etish, turistlarning shikoyatlarini qabul qilish, yodgorliklarni, atrof-muhitni muhofaza qilish, fohishabozlik va giyohvandlikka qarshi kurash shular jumlasidandir.

Mazkur talablar universal hisoblanadi va jahonning barcha mamlakatlariga tarqatiladi. Tur mahsulotlarda ular bolmasa turistik firma uning ichki va xalqaro bozorda harakatlanishini rad etishi mumkin, aniq xaridorga sotishni ham toxtadi.

Qoshimcha qilish kerakki, turistik xizmatlar korsatish chogida turistlar sogligi va xavfsizligiga mos keladigan tavakkalchilik darajasi taminlanishi lozim. Oddiy

sharoitlarda ham favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofat chogida va boshqa hollarda)da ham bu talabga birday amal qilish zarur.

Turistik safarlar sugurtasi turistlar xavfsizligini taminlashda katta rol oynaydi. Baxtsiz hodisalar klassik tarzda sugurtasida mijozga odatda voqeaning manaviy tomoni qoplanadi u oz tanasiga zarar yetkazilgani uchun moddiy tolov oladi. Bu tolov kasallik varaqasi boyicha tolanadigan haqdan tashqari beriladi. qator hollarda tolovlar summasi haqiqiy chiqimdan oshadi.

Lekin hamma narsa sugurta kompaniyasi bilan turist ortasida tuzilgan sugurta shartnomasiga bogliq boladi.

Masalan, chet elga boradigan Rossiya turistlarini sugurta qilish bilan shugullanadigan Ingosstrax tibbiy yordam korsatish pullik bolgan mamlakatlarda (Yevropada) shoshilinch tibbiy yordam korsatilganligi bilan bogliq bolgan haqiqiy sarf-harajatlarnigina, lekin 50 ming dollar doirasida qoplaydi. Turizm sohasidagi sugurtaning quyidagi turlari mavjud: turist va uning mol-mulki sugurtasi, turfirmalarning tavakkalchilik xavfi sugurtasi, turistlarning chet el safarlaridagi sugurtasi, chet el turistlari sugurtasi.

Sugurta badalining summasi bir necha sababga bogliq boladi.

Birinchisi-sugurta badalining kattaligiga bogliqlik (sugurta badali qanchalik yuqori bolsa, sugurta tolovlari summasi shunchalik kop boladi)

Ikkinchisi-60 yoshdan oshgan kishilar ikki hissa tarif tolaydilar.[5]

Uchinchisi-oshirilgan tariflar, odatda, tavakkalchilik xavfi bilan boglangan odamlar:uchuvchilar, dengizchilar, sportchilar, izquvarlar, yuk avtomobillari haydovchilari uchun belgilanadi.

Bolalarga siylovlar odatda kozda tutilmaydi, bazi kompaniyalar esa 2-3 yoshdan kichikroq bolalarni umuman sugurta qilmaydilar.

Xulosa XXI asrda globallashuv jarayoni jadal sur'atlarda kechishi kutilmoqda. Jahon iqtisodiyotida bu jarayon turizmning faol taraqqiyoti yordamida tezlashadi, chunki turizm industriyasi jahon integrasiyasiga to'gri proporsional ravishda ta'sir qiladi.

Hozirgi paytda turizm tobora ommaviylashib, nafaqat jamiyat aslzodalari uchun, balki ishchilar sinfi va yoshlar uchun ham dam olish shakliga aylandi. O'z infratuzilmasiga ega bo'lgan hordiq sanoati shakllanmoqda. Turistik korxonalar faoliyati jadallashib, ommaviy ravishda mehmonxonalar, dam olish va ko'ngilochar muassasalar qurilmoqda. zamonaviy turizmning o'ziga xosligi xalqaro ayirboshlashda ko'zga tashlanadi. Turizm jahon iqtisodiyotining eng rentabelli tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. AQShda qayd etilgan inqiroz yilning birinchi yarmida inventar ro'yxatini to'g'irlash va real sof eksportni kamaytirishda ko'zga tashlandi, uning natijasida Meksikada inqirozning samarasini aks ettirdi. bunday o'zgarishlar turizmga katta ta'sir ko'rsatadi. O'sish darajasi uchinchi chorakda investisiyalarning davom etishi va inventar ro'yxatini to'xtatib turish tufayli sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Biroq bu ko'rsatkich keyinchalik to'rtinchi chorakda 0,5 % kamaydi va 1996 yilning boshida turizm siyosatini shakllanishi natijasida yana ko'tarildi.[6]

Hozirgi paytda O'zbekiston bo'yicha turistik marshrutlar endigina sertifikatlanmoqda va shuning uchun turistlar xavfsizlik nuqtai nazaridan taklif qilinayotgan yo'l qanday holatda ekanligini bilib qo'yishi kerak.

O'zbekiston hududida xorijiy turfirmalar taklif qilayotgan va amalga oshirilayotgan turmahsulotlarni tekshirib korish ham juda muhim. Sozsiz, ozbek firmalari marshrutlarning xavfsizligini nafaqat qonuniyligi nuqtai nazaridan, balki oz meyorlariga mos kelishi jihatidan ham tekshirib korishlari talab etiladi. Masalan, shunday bolishi mumkin: Gobi sahrosi boyicha sayohat chogida taklif etilgan ichimlik suv Moguliston sanitariya talabalirga javob beradi, ammo ozbek standartlariga muvofiq kelmaydi, oqibatda ozbek turistlarining salomatligi xavf ostida qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm haqidagi" qonuni, Xalq so'zi, 14 sentyabr 1999 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urtalash haqidagi" qonuni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 15 - apreldagi: "2005 yilgacha bo'lgan davrda o'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi № 2286 sonli farmoni

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 - iyuldagi: "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi №447 sonli farmoni..

5.Karimov I. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". – Toshkent, "O'zbekiston", 2000 y.

6.Karimov I. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolati". – Toshkent, "O'zbekiston", 1997 y.